



Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar


O'zbekiston Respublikasida ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash tizimini takomillashtirish, sohadagi boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirishni kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.


Jumladan kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar:


 har yili **30–40** mingga yaqin ekologik ekspertiza obyektlari ekologik talablarga muvofiqligi bo'yicha ko'rib chiqiladi;


 atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimini va ekologik normativlar loyihalarini eng yaxshi mavjud texnologiyalarni joriy etish orqali takomillashtiriladi, ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini individual me'yorlashdan tarmoqlar kesimida me'yorlashga o'tiladi;


 **400** ga yaqin loyiha ishlab chiquvchilarining reytingi yuritiladi hamda ularning **800** ga yaqin mutaxassisiga malaka sertifikatlari beriladi;


 **12** ta viloyatda tuman va shaharlarning shaharsozlik hujjatlari, tarmoqlarni rivojlantirish strategiya va konsepsiyalari hamda davlat dasturlari strategik ekologik baholashtan o'tkaziladi;


 ekologik baholash tizimini takomillashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida UNDP, UNEP, World Bank, KEI, GIZ, IAIA Italy va AFD kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kengaytiriladi;


 ekologik ekspertiza tizimini KEI va IAIA Italy bilan hamkorlikda sun'iy intellektni joriy etish orqali takomillashtiriladi;

 Belarus Respublikasi bilan hamkorlikda 100 ga yaqin malakali ekolog-ekspertlar, shu jumladan atom energetikasi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash ta'minlanadi;

 investorlar uchun ekologik baholash tizimining shaffofligini ta'minlash maqsadida skrining va skouping mexanizmlari joriy etiladi;


 jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida ekologik baholash materiallarini ochiq elektron portal orqali muhokama qilish amaliyoti joriy etiladi;

 iqlim o'zgarishi ta'sirini hisobga olgan holda loyihalarning uglerod izi (*carbon footprint*) baholash mexanizmlari joriy qilinadi;

 "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida energiya samarador, resurs tejovchi va kam chiqindili texnologiyalarga ustuvorlik beriladi;

transchegaraviy ta'sirga ega loyihalar bo'yicha maxsus ekologik baholash tartiblari ishlab chiqiladi;

  ekologik ekspertiza obyektlari bo'yicha GIS xaritalash va geoma'lumotlar bazasi shakllantiriladi;

 ekologik ekspertiza xulosalarining ijrosini nazorat qilish maqsadida post-monitoring va ekologik audit tizimi kuchaytiriladi.



ecoekspertiza.uz
eco-service.uz



t.me/ecoekspertiza



facebook.com/ecoekspertiza



youtube.com/@Davlatekologikekspertizasimark